

ISPAN TILIDA NEOLOGIZMLAR VA ULARNING SHAKLLANISH USULLARI

Tursunova Madinabonu Abduvali qizi

O'zbekiston davlat jahon tillari universiteti

Roman-german filologiyasi fakulteti

1-bosqich talabasi

madinabonutursunova2007@gmail.com

Turamuratova Iroda Ilxombayevna

O'zbekiston davlat jahon tillari universiteti

Ispan tili nazariy fanlar kafedrasida dotsenti, f.f.f.d (PhD)

i.turamuratova@uzswlu.uz

ANNOTATSIYA

Ushbu ilmiy maqolada ispan tilidagi neologizmlar va ularning shakllanish usullari tahlil qilinadi. Xususan, XXI asrda Internet, raqamli texnologiyalar va ijtimoiy-madaniy jarayonlar ta'sirida paydo bo'layotgan yangi so'zlar ko'rib chiqiladi. Shuningdek, maqolada real OAV (2024-yil dekabr oyiga tegishli) misollar, ispan, rus va o'zbek olimlarining tadqiqotlari hamda neologizmlar manbalari tahlil qilinadi. Tadqiqot natijalari ispan leksikasining dinamik rivojini yoritadi va ilmiy hamda amaliy til o'rganish jarayonida ahamiyatli ma'lumotlar beradi.

Kalit so'zlar: *neologizmlar, globalizatsiya, OAV, Real Academia Española, semantik, pragmatik, derivatsiya, kompozitsiya.*

ABSTRACT

This scientific article analyzes neologisms in the Spanish language and the methods of their formation. In particular, it examines new words that have emerged in the 21st century under the influence of the Internet, digital technologies, and socio-cultural processes. The article also analyzes examples from contemporary mass media (dated December 2024), studies conducted by Spanish, Russian, and Uzbek scholars, as well as the sources of neologisms. The research findings highlight the dynamic development of Spanish lexicon and provide valuable insights for both academic research and practical language learning.

Keywords: *neologisms, globalization, mass media, Real Academia Española, semantic processes, pragmatic aspects, derivation, compounding*

KIRISH

Har bir til ijtimoiy hodisa demakdir. Uning rivojlanishi uchun yangi so'zlar kirishi hamda chiqishi kerak, ya'ni o'zga tillarning leksemalari kirib kela boshlasa

tilning soʻz boyligi yanada ortadi. Bu jarayon esa neologizm kabi ilmiy atamani fanga kiritadi. Neologizm (yunoncha néos — “yangi” va lógos — “soʻz”) — til tizimida nisbatan yaqinda paydo boʻlgan, ommaviy qoʻllanilishi hali toʻliq mustahkamlanmagan, lekin maʼlum kommunikativ ehtiyojni qondirish uchun xizmat qiladigan yangi leksik birlikdir. Neologizmlar tilning lugʻat tarkibidagi oʻzgarish va yangilanish jarayonining eng faol qatlamini tashkil qiladi. Ular nafaqat yangi soʻzlar koʻrinishida, balki mavjud soʻzlarning yangi maʼno kasb etishi orqali ham vujudga keladi. Neologizmlarni tezkor topishda amaliy yordam sifatida OAVning internet nashrlari ahamiyatga ega. Ularni lingvistik tahlil uchun qulay manba sifatida baholash mumkin.

ADABIYOTLAR TAHLILI VA METODLAR

Jahon tilshunosligida neologizmlar masalasi atroflicha oʻrganilgan. Bu bilan bir qatorda, Oʻzbekiston mustaqillikka erishgach iqtod, madaniyat, fan va texnika sohasida katta yutuqlarga erishdi, natijada boshqa tillardan koʻplab soʻz va iboralar kirib keldi. Texnika, maʼmuriy, kundalik sohalarda rus tilidan oʻzlashgan soʻzlar poyezd, avtobus, passport, intitut kabi soʻzlar boʻlsa, biznes, zamonaviy madaniyatga oid soʻzlar asosan ingliz tilidan kirib kelgan soʻzlardir va ular sirasiga kompyuter, marketing, internet, dizayn, onlayn, sayt va brend singari soʻzlarni kirita olamiz. Neologizm atamasi hech bir til uchun yod emas va har bir til rivojida ushbu hodisa roʻy beradi.

Mazkur tadqiqotda sifat va miqdoriy tahlil usullari uygʻunlashgan holda qoʻllanildi. Tadqiqot materialini sifatida 2024-yil dekabr oyiga oid ispan tilidagi real ommaviy axborot vositalari (gazeta, internet nashrlari va raqamli platformalar)dan olingan matnlar tanlab olindi.

MUHOKAMA

Xususan, Ispan tili - dunyoda millionlab odamlar tomonidan soʻzlashiladigan tirik til boʻlib, u doimo oʻzgarib boradi. Globalizatsiya, internet, ijtimoiy tarmoqlar va texnologik taraqqiyot ispan tiliga yangi leksik birliklar — neologizmlarni olib kiradi. Neologizmlar tildagi yangilanish va moslashuv jarayonining muhim qismi hisoblanadi. Ispan tilshunoslari neologizmlarni asosan quyidagi jihatlardan oʻrganadi: tushuncha va tasnif, shakllanish mexanizmlari, leksikografiya (lugʻatga kiritish mezonlari) hamda OAV va ijtimoiy tarmoqlardagi tarqalish dinamikasi. Ispan tilshunosliga oʻz hissasini qoʻshgan olimlardan biri Manuel Alvar (Manuel Alvar Ezquerro) [1] 1950-yil Ispaniyaning Zaragoza shahrida tugʻilgan. U Real Academia Española ning yozuvshi aʼzosi sifatida filolog va universitet professori lavozimlarida ish yuritgan hamda Ispan neologizmlarini matbuot asosida uzoq muddat kuzatgan. Ezquerro leksikografiyaga katta eʼtibor bergan: u lugʻatlarni tahlil qilish, tarixiy

lugʻatlarni oʻrganish va eski lugʻatlarning leksik komponentlarini qayta koʻrib chiqish ustida ishlagan. “Nuevo diccionario de voces de uso actual” [2] — uning eng mashhur ishlardan biri. Ushbu lugʻatda 12 389 kirish va 23 604 iqtibos mavjud boʻlib, 1988–2000 yillar orasidagi matbuot manbalari asosida toʻplangan. Alvar jurnalistik manbalarni sistematik toʻplash va repertuarlar tuzishni targʻib qilgan. Gloria Guerrero Ramos [3] ham Manuel Alvarning zamondoshi sifatida 1960-yili tugʻilgan va Filologiya va Lingvistika olimi sifatida izlanishlar olib brogan. Uning asosiy sohasi esa umumiy lingvistika, terminologiya hamda neologiya boʻlgan. U oʻzining eng mashhur asari «Neologismos en el español actual» [4] da monografiyalarida yaʼni, muayyan mavzu yoki muammoni, biror olim yoki yozuvchi hayoti va faoliyatini atroflicha, chuqur tadqiq etuvchi ilmiy asarlarida neologizmlarning turlari, ijtimoiy va pragmatik omillari, va normalashuvi (normativ jarayon) haqida yozadi. Hamda RAEng Observatorio de palabras loyihasida neologizmlarni, yangi tushunchalarni onlayn yigʻib, ularni kuzatish va tahlil qilish uchun yaratilgan rasmiy platforma - lugʻatga kiritish uchun avvalgi qadam hisoblanadi. Soʻnggi yillarda Ispan tilshunosligida RAE korpuslar va hatto AI yordamida neologizmlar deteksiyasiga yoʻnaltirilgan vositalar ishlab chiqilmoqda. Bu esa tilning rivojlanib borayotganidan dalolat.

NATIJA

Bunga qoʻshimcha tarxda, tilshunoslar oʻz davrida neologizmni quyidagi jihatlar bilan izohlaganlar:

Vaqt mezon - soʻzning tilda paydo boʻlgan davrining yaqindaligi;

Yangilik mezon - avval mavjud boʻlmagan yoki qoʻllanmagan birlik;

Ijtimoiy ehtiyoj - jamiyatdagi texnologik, madaniy, siyosiy oʻzgarishlar sabab paydo boʻlishi;

Bundan tashqari, neologizmlar ikki toifaga boʻlinadi:

1. Potensial (yangi, hali normaga kirmagan)

- faqat tor doirada, koʻproq internetda uchraydi.

Masalan: ingliz tilidan kirib kelgan postear(ijtimoiy tarmoqqa post yoki eʼlon joylamoq), goglear (internetdan izlamoq yaʼni Google qidiruv tizimidan qidirmoq), viralizar (tez tarqalgan va ommalashgan).

2. Normallashtirilgan (lugʻatlarga kirgan)

— RAE tomonidan rasmiy qabul qilingan.

Masalan: selfi, wifi, dron, teletrabajo.

Neologizmlarning turlari. Ispan tilshunoslari neologizmlarmi turli mezonlarga koʻra tasnif qilinadi. Eng keng qoʻllaniladigan ilmiy tasnif quyidagilardan iborat:

1.Leksik neologizmlar

Mutlaqo yangi shakldagi soʻzlar. Misollar:

nanorobot, criptomoneda, teletrabajo, ciberseguridad

2. Semantik neologizmlar

Mavjud soʻzning yangi maʼno kasb etishi. Misollar:

nube — “osmon” emas, balki “cloud storage”;

virus — biologik emas, “kompyuter virusi”.

3. Strukturaviy (morfologik) neologizmlar

Affiksatsiya, kompozitsiya yoki modellashgan yasaliş natijasida yaratiladi.

Misollar:

digitalización, hiperconectado, ecologismo

4. Fonetik-grafik neologizmlar

Yozuvdagi yangicha shakl, talaffuz yoki inglizcha imlo asosida. Misollar:

wifi, online, streaming, chatbot

5. Pragmatik neologizmlar

Maʼlum kontekstda yangi qoʻllanishga ega boʻladi — siyosat, gender, media.

Misollar:

feminicidio, empoderamiento, inclusividad

6. Ijtimoiy-madaniy neologizmlar

Jamiyatdagi yangi tushunchalar, subkultura yoki yoshlar tilida. Misollar:

influencer, viral, cancel, culture

7. Texnologik va ilmiy neologizmlar

Ilm-fan, IT, innovatsiyalar bilan bogʻliq. Misollar:

metaverso, inteligencia artificial, robotización

8. Soʻzma-soʻz tarjima neologizmlari

Ingliz tilidan koʻchirilgan maʼno konstruktsiyasi. Misollar:

rascacielos (skyscraper), puerto (port), casa inteligente (smart home).

Neologizmning shakllanish turlariga toʻxtaladigan boʻlsak, **affiksatsiya** va **kompozitsiyaga** boʻlinadi. Affiksatsion uslubdagi neologizmlar ham oʻz navbatida 2 turga boʻlinadi prefiks va suffikslarga. Prefikslar asosan old qoʻshimcha orqali yasalgan soʻzlar hisoblanadi: re- (reenviar), anti- (antivacuna), hiper- (hiperconectado). Suffikslar esa soʻzning oxiriga qoʻshimcha qoʻshish orali hosil boʻladi: -ción (digitalización), -ismo (ecologismo), -idad (virtualidad). Ikki yoki undan ortiq soʻz birikmasidan yangi soʻz hosil boʻlishi kompozitsiya uslubi deb ataladi:

videojuego (video + juego)

teletrabajo (tele + trabajo)

altavoz (alta + voz)

Shu bois neologizm tushunchasi lingvistik, ijtimoiy, madaniy va funksional jihatdan baholanadi. Tadqiqotlar shuni ko'rsatadiki, XXI asrda ispan tilidagi neologizmlarning asosiy manbalari — axborot texnologiyalari, global kommunikatsiya, OAV, internet madaniyati hisoblanadi. Quyida yaqin yillarda (2024–2025) ispan tilidagi ommaviy axborot vositalarida paydo bo'lgan yoki keng tarqalgan neologizmlar misollari keltiriladi:

El País (26.05.2024-yil): maqolada ishlatildi — microplástico, ciberacoso, metaverso.

El Mundo (2025-yil): xabarda — deepfake, fintech, blockchain.

La Vanguardia (24.03.2024, 23.12.2023 va 5.11.2024): “tecnología verde” mavzusi doirasida — electrificación, hidrógeno verde.

20 Minutos (2025-yil): ijtimoiy tarmoqlarda — influencer, viralizar, postear.

Cadena SER (radio suhbatlarda) — microcréditos, smartphone, cloud computing.

Bu misollar ispan tilidagi neologizmlarning real hayotda, ommaviy axborot vositalarida va kundalik til amaliyotida qanday ishlatilayotganini yaqqol ko'rsatadi.

XULOSA

Ispan tilida yangi so'zlar — neologizmlar — tilning tirik va o'zgaruvchan tizim ekanini yaqqol ko'rsatadi. Ular derivatsiya yani affiksatsiya, kompozitsiya kabi turli usullar orqali shakllanadi. Internet va ijtimoiy tarmoqlar, shuningdek OAV, neologizmlarning tarqalishida asosiy rol o'ynaydi. Ispan olimlarining tadqiqotlari til taraqqiyoti jarayonlarini ilmiy jihatdan yoritadi va til o'qitish, tarjima hamda kommunikatsiya sohalari uchun muhim yo'nalishlarni taklif qiladi.

1. Ispaniyalik filolog, leksikograf va universitet professori. 70 yillik umri davomida neologizm, dialektologiya va regional tilshunoslikda o'zining diqqatga sazovor ishlarni amalga oshirgan.

2. “Nuevo diccionario de voces de uso actual” - ushbu lug'atda 12 389 kirish va 23 604 iqtibos mavjud bo'lib, 1988–2000 yillar orasidagi matbuot manbalari asosida to'plangan.

3. Filolog va lingvist olim, Universidad de Málaga'da professor. Uning ilmiy faoliyatida terminologiya va leksik so'zlashuv yo'nalishlari muhim rol o'ynaydi.

4. “Neologismos en el español” — bu ispan tilida paydo bo'layotgan yangi so'zlar, ularning shakllanish jarayonlari va qo'llanish sohalari ilmiy tahlil qiluvchi kitobdir. Kitob ispan leksikologiyasi va til taraqqiyoti bilan shug'ullanuvchi talabalar va tadqiqotchilar uchun yozilgan.

ADABIYOTLAR RO‘YXATI

1. O‘zbekiston Respublikasi Oliy va o‘rta maxsus ta’lim vazirligi (2023). Til va kommunikatsiya bo‘yicha metodik qo‘llanma. Toshkent. (Ministry of Higher and Secondary Specialized Education of the Republic of Uzbekistan. (2023). Methodological guide on language and communication. Tashkent, Uzbekistan).
2. Rustamov, F. (2023). Neologizmlar va zamonaviy ispan tili. Tilshunoslik jurnali, 12(1), 45–53. (Rustamov, F. (2023). Neologisms and the modern Spanish language. Journal of Linguistics, 12(1), 45–53).
3. O‘rmonova, M. (2024, 14-aprel). Ispan tilida neologizmlarning shakllanishi va ularning kommunikativ xususiyatlari. Xalqaro Nordik universitetida o‘qilgan ma’ruza materiallari. (Ormonova, M. (2024, April 14). Formation of neologisms in Spanish and their communicative features [Lecture]. International Nordic University).
4. Real Academia Española. (2024). Diccionario de la lengua española (elektron nashr). Madrid. (Real Academia Española. (2024). Dictionary of the Spanish Language (Online ed.). Madrid, Spain).
5. Guerrero Ramos, G. (2017). Neologismos y medios de comunicación en el español actual. Revista de Filología Española, 97(2), 345–368. (Guerrero Ramos, G. (2017). Neologisms and mass media in contemporary Spanish. Revista de Filología Española, 97(2), 345–368.)
6. Кизи, С. М. А., & Турамуратова, И. И. (2024). Проблемы перевода испанских реалий на узбекский язык. *European science*, (2 (70)), 45-48.